



**TURKIY FILOLOGIYANING DOLZARB
MASALALARI, NAZARIYA VA
INNOVATSION TA'LIM
TEXNOLOGIYALARI**



**XALQARO ILMIY-AMALIY
KONFERENSIYA**

MATERIALLARI TO'PLAMI

NUKUS – 2021

MUNDARIJA:

TURKIY XALQLAR TILSHUNOSLIGI	
Қодиров Қ.А. Тилга хурмат – ёшлар тарбиясининг устувор йўналиши сифатида	6
Ибрагимов Ю.М. “Девону луғатит турк” туркий тилларни қиёсий ўрганишда тарихий восита	11
Huseynova Н. Modern Azərbaycan dili ve göytürk yazitlarında isimlerin durumları (çekimleri)	18
Аймұхамбет Ж., Дәуренбекова Л. Абай өлеңдерінің поэтологиялық тезаурусын түркі тілдеріне беру тәсілдері	22
Қурбаниязов Г. Мустақиллик йилларида ўзбек тили ижтимоий вазифаларининг таракқиёти	30
Худаярова М.Т. Тил лексик системасини этномаданий жиҳатдан ўрганишнинг аҳамияти	35
Ibragimova U.Y. O‘zbek tilida arabiy o‘zlashmalarning leksik-semantik o‘zgachalıkları xususida so‘z	38
Хамроева Ш.М. Лингвофольклористика ва компьютер лексикографиясида лингвистик таъминотнинг аҳамияти	46
Suyunov B.T. Tezaurus va unı turkiy tillarga tatbiq etish	50
Abduvaliyeva D.A. Qadimgi turkiy til manbalari mavzusini o‘qitishda interfaol usullardan foydalanish	55
Юсупова Б.Т. Қарақалпақ тилиндеги эмотивлик фразеологизмлердиң фоностилистикалық анализи	61
Жумаева Ф. Антоним семаларнинг лингвопоэтик имкониятлари	65
Мусаев А., Мухторова Г. Тоҳир Маликнинг “Чархпалак” асарида салбий маъно ифодаловчи сўзлар	69
Махмудова S.X., Fayzullayev M.B. “Ostona” lingvomadaniy birliklarining matn tahlilida voqelanishi	72
Юсупова Б.Т. Қарақалпақ тилиндеги сеслик үйлесимли фразеологизмлердиң көркемлик хызметлери	76
Тожиева Г.Н. Ўзбек тилида шахс маънавиятини ифодаловчи лексик воситаларнинг тарихий-этимологик хусусиятлари	81
Жумаев Т. Сингармонизм тарихий ўзак ясалишининг мезони сифатида	86
Юлдошева Н.Э. Психоллингвистика ва миллий грамматика муносабати	92

Асарда яна кесатиш маъноли салбий сўзлар ҳам ишлатилган. Булар: **ЭНГ** **мехрибон**, **ЭНГ халол** сўзлари ўғриларга нисбатан кесатиш маъносида ишлатилган. **Мўлтони**, **фаришта**, “**гул**”, “**пул**”, хоним сўзлари ҳам гапда кесатиш маъносида ишлатилганлигига гувоҳ бўламиз.

Умуман олганда ёзувчи томонда салбий маъно ифодаловчи сўзларнинг қўлланиши ўринли қўлланган. Ёзувчи асарда вулгаризм-ҳақорат маъносидаги сўзларни қўллаш билан образ нутқини таъсирли чиқишида унумли фойдаланган.

Адабиётлар:

1. Жамолхонов Ҳ. Ҳозирги ўзбек адабий тили. Тошкент, 2005, 198-б.
2. Ўринбоев Б. Ҳозирги ўзбек тилининг сўзлашув усули. Тошкент, 1991, 85-б.

“OSTONA” LINGVOMADANIY BIRLIKLARINING MATN TAHLILIDA VOQELANISHI

S.X.Maxmudova, BuxDU doktoranti

M.B.Fayzullayev, BuxDU dotsenti

Аннотация. Ushbu maqolada ostona lingvomadaniy birliklarining milliy madaniyatimizga xos insoniylik xususiyatlari, ularning og‘zaki va yozma nutqda voqelanishi, asarlardan olingan matnlar orqali tahlil qilinib, tilshunoslik nuqtayi nazaridan yoritib berilgan.

Калит со‘злар: Matn, matn tahlili, ostona, lingvomadaniy birlik, milliy qadriyatlar, germenetika, adabiyotshunoslik, lingvistika, nutq.

Ma’lumki, matn tahlili atamasining kelib chiqish tarixi ko‘pgina qarama-qarshi ta’rif va tushunchalarga ega. Matn so‘zi lotincha texo – tikaman, quraman, ulayman; textus-material.

Boshqacha qilib aytganda, matn so‘zining ma’lum bir matolarni bir-biriga bog‘lash, bir-biriga ulash ma’nolarini anglatadi. Shunga qaramasdan matnning qaysi sistemaga (til yoki nutq) qaratilganiga bog‘liqdir.

Matn tahlili nazariyasining qarama-qarshiligi uning ikki yo'nalishiga bevosita bog'liq. Birinchisi – adabiyotshunoslik bo'lsa, ikkinchisi – lingvistikadir. Har ikkalasining ham o'rganish obyekti matndir. Ayrim tilshunos tadqiqotchilar tahlil so'zining o'rnida izlanish atamasini ham ishlatishadi. Kengroq olib qaralganda ikkala atama ham bir vazifani bajaradi. Shu bois ularni ma'nodosh desak xato bo'lmaydi.

Ayrim olimlar jumladan, N.A.Ippolitova matnga quyidagicha ta'rif beradi: “Matn o'zaro aloqa uchun xizmat qiladigan birlikdir. Shu bois u nutq hodisasidir”. Boshqa ayrim olimlar (I.R.Galperin, O.I.Moskalskaya, G.V.Kolshanskiy va b.) matnni til birligi deb, uni mikrosistema asosida nutq vazifasini bajaradi. Bundan tashqari olimlarimiz (I.R.Galperin, L.M.Loseva) matn faqat yozma shaklda bo'ladi ya'ni o'g'zaki matn tahlilini inkor etadi. Tadqiqotchi I.R.Galperin o'zining matn lingvistik tadqiqot obyekti “Текст как объект лингвистического исследования” kitobida matnga shunday ta'rif beradi. Matn – ijodiy nutq jarayoni bo'lib o'zining tugallangan mazmun va ma'nosiga ega yozma shakldagi hujjatdir [Филологический анализ текста 5-6 b.].

I.V.Arnold, O.A.Lapteva, L.V.Sherba, M.M.Baxtin, T.M.Nikolayevalar og'zaki nutq asarlarini ham matn deb hisoblaydi. Ammo, ularning faqatgina monologik shaklini. Yuqorida keltirilgan qisqagina bir-biriga zid bo'lgan ta'rif va tushunchalarni umumlashtirsa, quyidagi shaklga ega bo'ladi.

Matn bu til va nutq birligi hisoblanib, og'zaki va yozma shakllarda voqelanadigan tilshunoslikning eng katta va murakkab birligidir. Matn nafaqat matnshunoslikning, balki nazm va nasr, nutq madaniyati, lingvistika, psixolingvistika, madaniyat fanlarining o'rganish obyektidir. Sanab o'tilgan fanlar ichida lingvistika o'ziga xos o'ringa ega. Chunki, matn nutq faoliyatining mahsuli hisoblanib, til va nutqga bevosita bog'liqdir. Shunga qo'shimcha qilib, lingvomadaniy birliklarni lingvistika nuqtayi nazaridan tahlil qilganda ularning yo'nalish va turlari juda ko'pligini (fonetik, leksik, morfologik, sintaktik) e'tirof etib, shulardan tadqiqotimizga mos bo'lgan leksik tahlilga kengroq to'xtalamiz.

Matn tahlili nazariyasi o'zining boy tarixiy izlanishlariga ega. Bularning majmuyi ingliz tilidan olingan “Hermenevtika” atamasi bilan nomlanadi.

Hermenevtika – Hermeneuo – aniqlik kiritaman, mahorat sharhlash nazariyasi bo‘lib, uning maqsadi so‘zlarning grammatik ma’nolari va tarixan aniqlangan variantlarga va subyektiv mualliflarning niyatlari asoslariga muvofiq matn ma’nosini aniqlashdan iborat.

Germenevtika – inglizcha – adabiy matnlarni talqin qilish nazariyasi, diniy, tarixiy va badiiy asarlar talqini bilan shug‘ullanadigan, shu asosda o‘sgan XX asr falsafasining yo‘nalishidir. Uning debochasi ko‘hna grek madaniyati bilan bevosita bog‘liq. Buning asosini Aristotel, Augustin (belgilar klassifikatsiyasi), Matiuslar badiiy asarlarning asosiy g‘oyasini aks ettiruvchi matnlar, asar muallifi va uning g‘oyalari aks etgan matnlar tahlili bilan shug‘ullanishgan. XVIII-XIX asrlarga kelib Germaniyada filologik germenevtika muammosi keng muhokamalarga, talqin va isbotlarga sababchi bo‘lgan. Jumladan, V.Fon Gumboldning tilning ichki shakli haqidagi ta’limoti. Tilning paydo bo‘lishi va uni tushunish, til faoliyatining diologik xususiyatlari. Umuman olganda, til falsafasining germenevtik g‘oyalarning rivojiga zamin tayyorlagan. V.Fon Gumboldning g‘oyalarini rivojlantirib, germenevtikaning manbasi, maqsad va vazifalarini belgilashga muvofiq bo‘ldi. Uning fikricha germenevtikaning asosiy maqsadi – muallif va uning asarlari matnini undan yaxshi tushunish, ya’ni asar muallifidan sifatli, keng va mazmunga boy tahlil yarata olish. Yuqorida keltirilgan butun dunyo til va adabiyotida matn tahlili mavzusini ifodalaydigan tarixiy ma’lumotlarga qo‘shimcha qilib, o‘zbek tili, nutqi va adabiyotining rivojiga o‘ziga xos hissa qo‘shadigan, matn tahliliga biroz to‘xtalsak maqsadga muvofiq bo‘lard.

Tan olishimiz kerakki bu borada qilingan ilmiy-nazariy ishlarimiz rivojlanish jarayonida (Bu borada qilingan ishlarimiz barmoq bilan sanoqli). Shunga qaramasdan hozirgi “Yangi O‘zbekiston strategiyasi” ostonasi shaxdam qadamlar bilan rivojlanmoqda. Matn tahlili borasidagi izlanishlarimiz son jihatdan chuqur ma’no va mazmunga egadir. Masalan, buyuk adibimiz S.Ahmadning “Qorako‘z majnun” kitobida keltirilgan “Borsa kelmas darvozasi” hikoyasining kichik bir matniga e’tiborimizni qaratamiz.

“Dadajon o‘n yillik azob-uqubatlar yukini yelkasidan tushirib, ozodlik ostonasida entikib-entikib turardi.

Nihoyat uni maxsus bo‘lim vakili chaqirdi. O‘n besh choqli mahbus uni kuzatib chiqdik. Dadajon qushdek yengil bo‘lib ichkariga kirib ketdi. Hozir u chiqadi. Uni bag‘rimizga bosib erkinlik bilan qutlaymiz. Besh minut o‘tmay, u yelkasida og‘ir tosh ko‘tarib kelayotgandek bukchayib chiqdi. Nima bo‘ldi, deb undan so‘raymiz. U gapirolmas, tili tanglayiga yopishib qolgandek entikardi. U zo‘rg‘a «yana besh yil» deya oldi, xolos”.

Mazkur matnni ichki bir necha bo‘lakka ajratish mumkin. Boshqacha qilib aytganda kichik matnlar shaklida.

1. Dadajon (Andijonlik mahbus adibning suhbatdoshi) ning ozodlikka chiqishiga tayyorgarligi, ya’ni yo‘lga otlanishi uchun tayyorgarlik ko‘rishi.

2. Dadajonning insoniylik xususiyatlari;

3. Taqdir o‘yini (orzular sarobga aylandi)

Albatta, uchga bo‘lingan matnni mazmun jihatdan yana bir necha kichkina matnlarga ham bo‘lib tahlil qilish mumkin. Bu esa tahlilning qaysi yo‘nalish va maqsadlarga qaratilganiga bog‘liq. Bundan tashqari matn tahlilining turlariga (badiiy, adabiy, lingvistik, biologik) ham bevosita bog‘liqdir. Agar badiiy tahlilni ko‘zlasak, unda quyidagilarga e’tibor beramiz. Shu kichik matnning kompozitsiyasi, qaysi janrga xosligi obrazlar tahlili va qahramonlar madaniyati. Lingvistik tahlil qilinganda esa tilshunoslikning barcha yo‘nalishlarida tahlil qilish mumkin. Jumladan, fonetik, semantik, morfologik, sintaktik va stilistik. Bulardan keng foydalaniladigani stilistik tahlildir. Mavzuyimiz lingvomadaniy yo‘nalishda ekan, asosiy maqsadimiz, matn tahlilida milliy madaniyatimizga xos insoniylik xususiyatlari o‘rin egallaydi. Uchga bo‘lingan yuqoridagi matnda madaniyatimizga xos erkinlik, ozodlikka chiqish uchun jonini qurbon qilishga tayyor Dadajonga o‘xshagan badiiy obrazlar orqali milliy qadriyatlarimizni namoyon etadi. Millatimizga xos buyuk qadriyatlardan biri hamdardlik bu mavzu ham shu kichik matnda o‘z aksini topgan.

Xulosa qilib aytganda, matn tahlili nazariyasi va tahlil qilingan barcha lingvomadaniy birliklarda o‘z aksini topgan milliy madaniy qadriyatlar, qiyosi yo‘q

talqinlar ostona lingvomadaniy birligining ro'yobga chiqishida asosiy manba bo'lib xizmat qiladi.

Adabiyotlar:

1. Бабенко Л.Г., Казарин Ю.В. Лингвистический анализ в художественного текста. Москва. Издательство «Флинта», 2003. С. 30.
2. Yo'ldoshev Q. Badiiy tahlil asoslari . Toshkent, 2016. 212-b.
3. Ahmad S. Qorako'z majnun. 35-b.

ҚАРАҚАЛПАҚ ТИЛИНДЕГИ СЕСЛИК ҮЙЛЕСИМЛИ ФРАЗЕОЛОГИЗМЛЕРДИҢ КӨРКЕМЛИК ХЫЗМЕТЛЕРИ

Юсупова Бийбисәнем Турдыбаевна

Әжинияз атындағы НМПИ

Қарақалпақ тили кафедрасының доценти,

филология илимлериниң кандидаты

Аннотация. Мақалада қарақалпақ тилиндеги сеслик үйлесимли фразеологизмлердиң көркемлик хызметлери әдебий шығармалардан алынған сәйкес мысаллар тийкарында таллаў жасалады.

Таяныш сөзлер: фразеологизм, сеслик тәкирар, сеслик үйлесимли фразеологизм, көркем шығарма тили.

Сес – тилдиң ең киши бирлиги сыпатында белгили. Сеслер бир-бирине жақын, уқсас ямаса тәкирар айтылғанда өзине тән музыкалылықты, ырғақты дөретеди. Бундай сыпат тилдиң фразеологиялық қорында орын алған айырым фразеологизмлердиң тәбиятына да тән болып келеди. Өз гезегинде, бундай фразеологизмлер уқсас ямаса бирдей даўыссыз хәм даўыссыз сеслердиң тәкирарланып келиўи арқалы дөреледи ямаса олардың қурамындағы сеслик тәкирарлар мәни арттырыўшылық хызмет атқарып келеди. Қарақалпақ тилиндеги фразеологизмлердиң бир топарын усындай фразеологиялық бирликлер қурайды. Мысалы: Хұрметли начальник Қазаров сондай өткир адам,